



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT

¹ Saburova Umida Kuanishbay qizi, ² Xushanov Alisher Oydin o'g'li

¹ Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

² Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7227907>

ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

Ma'rifat, drama, jaholat, ilmsizlik, tarbiya, madaniyat

ABSTRACT

Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asaridagi "Toshmurod" obrazi alohida e'tiborga olinadi va mana shu obraz orqali bilimsizlikning nechog'lik achinarli ahvolga olib kelishi yaqqol aks ettiriladi. Ilm va ma'rifatning inson hayotidagi ahamiyati keng ma'noda tushuntirilib beriladi.

O'zbek drama janri asoschisi, buyuk alloma Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Mahmudxo'ja tog'asi Muhammad Siddiqning tarbiyasini oladi. Behbudiy adaboyot, tarix fanlari bilan birga siyosatni ham o'rgangan. Balki, uning asarlaridagi davlat ishlariga alohida e'tibor masalasi ham ayni shu tomonga borib taqalar. Makka, Misr, Istanbul shaharlariga bo'lgan sayohati dramaturg hayotida o'ziga xos iz qoldirdi. Mahmudxo'ja 200dan ziyod o'zbek va tojik tillaridagi nashrlar muallifi. Ular sirasiga "Qisqacha umumiy jug'rofiya", "Bolalar uchun kitob" kabilarni kiritish mumkin. Behbudiyning yozuvchilik poydevorining tamal toshi 1911-yil Samarqandda yozilgan "Padarkush" dramasi sanaladi. Drama dastlab 1912-yil "Turon" gazetasida bosib chiqarilgan. 1913-yil esa alohida kitob ko'rinishida nashr etildi.

Asar kompozitsion nuqtai nazardan asar oddiy ko'rinsada, g'oyaviy juda murakkab

konfliktlikni tashkil etadi. Shuningdek, drama janrining barcha talablariga javob beradi. Behbudiy jadid adabiyotining asoschilaridan biridir. Yozuvchi Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida birinchilardan bo'lib dramatik asar yaratdi.

Padarkush-o'zbek drama janrining hamma e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmunga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar sifatida baholaydilar. Muallif "Milliy fojia" deb atagan 3parda 4manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n edi. "Padarkush" dastlab Samarqandda 1914-yil 15-yanvarda sahnaga qo'yildi.

Spektakl o'z maishatiga o'ralib dunyoni unutgan millatdoshlarga yashindek ta'sir etdi.

Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma'rifat ulug'lanadi. Muallif o'qimagan bolaning holini ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Behbudiy yoshlar



ta'limi va kamolotida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o'rin tutishini "Padarkush" dramasi asosida joylashtiradi. Drama bir qator o'ziga xos obrazlar mavjud. Jumladan Boy, uning o'g'li Toshmurod, ruscha tahsil ko'rhan ziyoli kabilardir. Asardagi ma'rifatparvarlik g'oyasi mana shu obrazlarning o'zaro suhbatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Muallif Boy obrazi orqali pul, mol-dunyoga ega bo'lgan, ammo uni ilm-u ma'rifat yo'lida sarflamaydigan nobakor inson qiyofasini shakllantiradi. Toshmurod-do'st kim, dushman kim farqiga bora olmaydi. Buning natijasida Tangriqul bilan birga o'z uyiga o'g'irlikka borishga rozi bo'ladi. Toshmurodning qay darajada tuban kimsa ekanini mana shu epizod misolida anglab olish ham qiyin emas.

Xalqimiz orasida "Olmaning tagiga olma tushadi,"-degan hikmatli maqol bor. Haqiqatan ham, agar boy avvalo o'zi ilm o'rganib so'ng o'g'lini ham taftish etganida jarayon mutlaqo boshqacha bo'lishi ham mumkin edi. Asarni tahlil qilishimizda yana bir jihat kulminatsion nuqta e'tiborimizni tortadi. Toshmurod otasining sandiqdagi mol-mulkini o'marish yo'llarini maishatparast sheriklari bilan rejalashtiradi. Ularni o'z uyiga boshlab borganida otasi sezib qoladi. Sheriklar boyni o'ldirib pulini olib ketishadi. Ayni shu vaqtda ham Toshmurod nimalar qilib qo'yganini anglamaydi. Qotillikdan so'ng ham huddi hech narsa bo'lmagandek mayxonaga ravona bo'ladi. Ammo haqiqat ochiladi mirshablar Toshmurod va uning jinoiy sheriklarini olib ketishadi. Dramadagi ilm targ'ibotchilari Domla va Ziyoli boyni bu masalada ko'p bor ogohlantirganliklarini aytib afus- nadomat chekadi.

Mavzuga diqqat qilinsa oradan bir asrdan ortig'roq vaqt o'tgan bo'lsada, ayni zamonimizda ham o'qimagan bo's turli

aldovlarga ishonib yomon yo'llarga kirib qolayotgan yoshlar yo'q emas.

Ilm-baxt keltiruvchi manba. Ezgulikka undovchi barhayot maskan, aqlni yoritib turuvchi beqiyos mash'ala. Har bir inson ilm shul'asidan bahramand bo'lsa shakshubhasiz hayot yo'llarida qoqilmaydi va jamiyatda o'z o'rnini topadi. Farzand otanoning ko'zgusi hisoblanadi. Toshmurod bu ko'zguga otasining mol-mulki, maishatparastlik, yengil yelpi hayot tarzi nigohi bilan qaradi. Natijada ko'zguda qilmishga yarasha qildirmish aksi paydo bo'ldi. Drama o'ta ahamiyatga molik asar. Ushbu asarda jaholatga qarshi ma'rifat nurlari bilan kurashish, ilm-u ma'rifatsiz jamiyatning kelajagi tanazzulga yuz tutishi yorqin misollar bilan ifodalab berilgan. Ma'rifat va ilm rivojlanmasa, jamiyat hech qachon ilmsizlik tarbiyasizlik balosidan qutila olmaydi.

Buyuk alloma Abdulla Avloniy: "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir"-degan hikmatli iborani bejiz keltirmagan. Chindan ham tarbiyasizlikning og'ir oqibatlariga duchor bo'lmasdan avval bu tushunchalarning hayotimizdagi ahamiyati shakl-u shamolyilini to'liq anglab yetmog'imiz darkor.

Xulosa o'rnida aytish joizki, tarbiya hech qachon eskirmaydigan hamda tugal yechimi topilishi mushkul bo'lgan masalalardandir. Insonni yoshligidan tarbiyalash lozim. Xuddi daraxt navniholi singari uni qsy tomonga yo'naltirib tarbiyalansa, umrining oxirigacha ana shu yo'ldan boradi. Mahmudxo'ja Behbudiy juda qisqa sahna asari vositasida o'z ma'naviy dunyosini, ilm-ma'rifatning qadr-qiyamatini zo'r mahorat bilan ifodalab beradi. Asarda diniy ilmlarga asoslangan "Ilm olish barcha erkak va ayollar uchun ham



farz", "Beshikdan mozorgacha ilm izla" kabi nasihatlar ham o'rin olgan. Shuni yodda tutmoq lozimki, mashaqqatlarsiz natijaga erishib bo'lmaydi. O'qish azobi vaqtincha, bilmaslik azobi abadiydir. Maqsadlar ulug'lashgan sari yo'l

ham uzunlashaveradi. Hayot-rivojlanishdan iborat progres. Rivojlanish bosqichlari va natijalar inson shaxsiyatiga, harakatiga borib taqaladi. Ilm insonni yuqori cho'qqiga olib chiqadi. Har biringizga eng yuqori cho'qqilarni zabt etish nasib etsin!

References:

1. B. Qosimov "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" Toshkent -2004-yil
2. F. Hasanov, "Ma'naviyat yulduzlari" A. Qodiriy nomidagi nashriyot. Toshkent- 2011
3. B. To'xliyev, B. Karimov, "Adabiyot darslik 10-sinf uchun" Toshkent-2017-y